

PSIXOLOGLAR FAOLIYATIDA ASSOTSIATIV METODLAR

Latibjonov Rahmatillo Abdurashid o'g'li

Psixologiya kafedrası 1-kurs magistranti

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

rahmatillolatibjonov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologlar faoliyatida ajralmas bo'lgan assotsiativ metodlar xususida tahlil olib boriladi hamda uni amalga oshirish texnologiyalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, assotsiativ metod, "men", ruhshunos, xotira.

Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli ruhshunos G. Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib, 1885 yilda oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani (1888 yilda intellektni) ilmiy tajriba metodi negizida tekshirdi va keng ko'lamda turmushga tatbiq etdi. U xotira jarayonini tajribada tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. Xotirani "sof" ko'rinishda o'rganishga harakat qilib, ma'no kasb etmaydigan bo'g'inlardan foydalanadi. Uning bu tadqiqoti kishining mantiqiy xotirasini emas, balki mexanikxotirasiga nisbatan qo'llanishga xos to'g'ri yo'nalishdir.

Xotira nazariyalarining quyidagi turlari mavjud: 1. Psixologik: a) Assotsiativ nazariya, b) bixevioristik, v) geshtalt nazariya, g) mazmuniy nazariyalar. 2. Fiziologik nazariya. 3. Fizik nazariya. 4. Bioximik nazariya. Ilmiy psixologiyada xotira tadqiqoti ilk bora German Ebbingauz tomonidan o'rganila boshlandi. Olim assotsiativ psixologiya maktabi vakili bo'lib, u mazmunsiz so'zlarni (bo'g'inlarni) esda olib qolishda materialning barqarorligi, mustahkamligi va assotsiatsiyalar kuchini tadqiq etgan. Ebbingauz va uning shogirdlarining psixologiya faniga qo'shgan asosiy hissasi bu xotira jarayonini miqdoriy tadqiqot metodlarini yaratganligidir¹.

Psixologik faoliyatda mijozlar bilan ishlaganda assotsiativ metod as qotadi. Shu o'rinda psixoanalitik maslahatchi mijozga ichki nizolarning tabiati va sabablarini anglashga yordam berishi uning "Men" ini kuchaytirishni va uni "Oliy Men" va -Ull dan birmuncha mustaqil bo'lishini ta'minlashni o'zining asosiy vazifasi deb biladi. Buning uchun u mijoz bilanishchi ittifoqqa erishishi u bilan uning qarshiliklari va munosabatini o'rganib chiqishi, nomaqbul xilma xil mexanizmlari harakatini bartaraf qilishi zarur hamda turli xil komplekslarni namoyon bo'lishini anglash mumkin. psixoanatilikaga yo'nalgan maslahatning aksarit texnikalaini asosi sifatida "erkin assotsiatsiya" ko'rib chiqiladi.

Bixiveorizm yondashuvi tarafdori bo'lgan maslahatchi eng avvalo mijozning xulq-atvori ustida ish olib boradi. Uning vazifasi naniq ko'p ma'noli so'zlar orqali ifodalangan psixologik muammoni ob'ektiv kuzatish imkoni mavjud bo'lgan xulq-atvor harakatlariga ko'chirish.

Egotsentrik assotsiatsiyalar testi

Mazkur proektiv test o'smirlar va katta maktab yoshi o'quvchilaridagi egotsentrizm darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Egotsentrizm – individning tegishli axborot ta'sirida ham biror bilish ob'ektiga nisbatan bo'lgan o'zining boshlang'ich qarashlarini o'zgartirishga qodir bo'lmasligi: voqea – hodisalarga boshqa odamlar ko'zi bilan qaray olmaslik, boshqalar nuqtai nazarini tushuna bilmaslik. Ushbu hususiyat odatda 12 – 14 yoshlarga kelib, yo'qolib boradi

¹ Иванов П.И., Зуфарова М. «Умумий психология». – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2010.

yoki, aksincha, o'smirlik davrida egotsentrik tipdagi shaxsga xos xususiyatlar shakllanishi va mustahkamlanishi mumkin².

Metodika T.I.Pashukova tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, 40 tatugallanmagan gapdan iborat. Tekshiriluvchi hayoliga kelgan birinchi fikrni yozib, gapni tugallashi talab qilinadi.

Bunday vaziyatda ...

Eng osoni...

Shunga qaramay...

Borgan sayin...

Unga nisbatan...

Har qaysi...

Attang...

Natijada...

Agar...

Bir necha yil avval...

Eng muhimi...

Aslini olganda...

Faqat...

14.Haqiqiy muammo shundaki...

15.Baribir...

16.Shunday kun keladiki...

17.Eng katta ...

18.Hech qachon...

19.Bunga...

20.Ilojsiz holatda...

21.Muhimi shundaki...

22.Ba'azan...

23.Taxminan...

24.O'tmishda...

25.Gap shundaki...

26.Ayni paytda...

27.Yaxshisi...

28.Hammasini e'tiborga olib...

29.Agar bunday bo'lmaganda...

30.Doim...

31.Imkoniyati bo'lsa...

32.Bu holda...

33.Odatda...

34.Hatto, shunday bo'lsa ham...

35.Hozirgacha...

36.Shart – sharoitlar bo'lsa...

37.Eng qizig'i...

38.Qanday qilib...

39.Yaqin kunlardan buyon...

40.Faqat shundan keyin...

Egotsentrizm indeksini aniqlashga yo'naltiriladi. Egotsentrizm indeksini topish uchun tekshiriluvchi nechta gapda birlikdagi birinchi shaxs kishilik olmoshi va uning har xil shakllari – «men», «mening», «meni», «menga» va boshqalar qo'llangani hisoblab chiqiladi.

² Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. «Умумий психология». – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. 8. Ғозиев Э. Умумий психология – Тошкент, 2010. Б. 417-457.

Shuningdek, tegishli olmoshlar ishlatilmagan, ammo aniq nazarda tutilgan gaplar, oxirigacha yetkazilmagan, lekin tegishli olmoshni o'z ichiga olgan gaplar miqdori hisoblanadi. Nechta gapda yuqorida ta'kidlangan holatlar qayd etilsa, ularning miqdori egotsentrizm indeksi sifatida qabul qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Выготский Л.С., Лурия А.Р. Культурное развитие специальных функций: память // Психология памяти: Хрестоматия / Ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, В.Я. Романов. - М.: ЧеРо, 2010. - б.406-419.
2. Иванов П.И., Зуфарова М. «Умумий психология». – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлар миллий жамияти, 2010.
3. Каримова В.М. «Психология». – Тошкент: Шарк, 2002.
4. Климов Е.А «Психология». – Спб., 2010 г
5. David G.Myers "Psychology". NY, 2010. Worth Publishers. 118 p.
6. Психология памяти: Хрестоматия / Под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, В.Я. Романова. - М.: ЧеРо, 2000. - 814 с.
7. Хайдаров Ф.И., Халилова Н.И. «Умумий психология». – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. 8. Ғозиев Э. Умумий психология – Тошкент, 2010. Б. 417-457.